

O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA IKKI TILLILIK

Xamroyeva Shoira Otabek qizi

Toshkent kimyo xalqaro universiteti

Boshlang'ich ta'lim pri-21e

Xamroyeva.1999@gmail.com


Annotatsiya: *Taqdim etilayotgan maqolada chet tillarini bilish har bir insonning kelajak hayoti uchun muhim bir qism ekanligi yoritib beriladi. Bugungi kunda har bir inson uchun xorijiy tillarni bilish muhim sanalmoqda. Dunyo tobora glaballashib borayotgani va ikki tilli bilish, shunchaki qiziq emas, balki zamon talabi bo'lib bormoqda. Ayniqsa ikki tilli ta'lim tizimi ko'plab davlat ta'lim tizimining eng yuqori ko'rsatgichiga chiqmoqda.*

Kalit so'zlar: *xorijiy til, ikki tillilik, ta'lim, ingliz tili*

KIRISH

Bugungi kunda barcha sohalar qatorida ta'lim tizimi ham jadal rivojlanmoqda. Talim tizimi har bir davlatning eng muhim va kerakli sohalridan biri shular qatorida mamlakatimiz ham bu soha uchun barcha sharoitlarni yaratgan. Yangi O'zbekistonning yangi qonun va qoidalari Kun sayin o'zgarib, xalqimiz uchun yengillik yaratmoqda. Yurtimiz yoshlari ta'lim olishi uchun O'zbekistanda ham hattoki chet ellarda ham barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Birgina chet tillarini o'rganish va o'rgatish tizimini oladigan bulsak, hisobsiz misollar keltirish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning 10.12.2012 yil PQ-1875 sonli qarorida "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish " to'g'risida. Mana oradan 10 yil o'tdiki bu qisqa muddat ichida bu tizim jahon ta'lim tizimi cho'qqisiga yetdi, ya'ni ikki tillilik rivojlandi. Ikki tillilik "Maktabgacha talim" tizimidan "Oliy ta'lim" tizimigacha hatto mustaqil ta'limlarning asosiy qismi bo'ldi. Yurtimizning barcha ta'lim dargohlarida ona tilimiz singari ingliz, fransuz, nemis, koreys, rus, arab tillari o'qitilib kelmoqda.



Ikki tillilikni yanada rivojlantirish maqsadida bir qancha sertifikatlar joriy etildi. Bu sertifikatlar milliy va xalqaro turlari mavjud. Ikki tillilik faqat ta'lim tizimida emas barcha sohalarda kerakli bo'lib bormoqda. Bunga misol O'zbekiston Respublikasi Bosh Vazirining 2019-yil 13-may 395-sonli qarorini keltirish mumkin. Bu qarorda Oliy ta'limning Magistratura bosqichiga hujjat topshirmoqchi bo'lgan har bir abituent qaysi soha bo'lishidan qat'iy nazar milliy yoki xalqaro chet tillariga asoslangan sertifikatga ega bo'lishi zararu.

Mashhur nemis olimi Y.V. fon Gyote aytganidek: "Kim chet tillarini bilmasa u o'z tilini ham bilmaydi". Shu sababdan chet tillariga ixtisoslashgan ta'lim dargohlari Kun sayin ko'payib bormoqda. Bunga misol Toshkent KIMYO XALQARO UNIVERSITETI Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi PRI-21E guruhini olsak, bu guruhda barcha darslar, dars materiallari, oraliq va yakuniy imtihonlar ham ingliz tilida bo'lib o'tadi. Bu ta'lim tizim yurtimizda yagona hisoblanadi shu kungacha chunki bu soha uchun pedagoglar xorijiy davlatlarda tahsil olib kelayotgandi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ikki tillilik yurtimiz ravnaqi uchun juda muhim. Bu sohani rivojlantirish uchun chet ellarda o'qish emas shu tizimini chet ellardan har xil metodikalarni olib kelib, o'rganish kerak.

REFERENCES:

1. <https://in-academy.uz/bilingualism>
2. [researchgate.net/Bilingual education picture](https://researchgate.net/Bilingual%20education%20picture)
3. <https://spbhttp.ru/uz/chto-eto-za-bilingvalnoe-obuchenie-i-kak-ego-primenyayut-na/>
4. [https://ecisd.net/ bilingual education](https://ecisd.net/bilingual%20education)
5. [https://shutterstock.com/ bilingual education](https://shutterstock.com/bilingual%20education)
6. <https://madreshoy.com/uz/ikki-tilli-ta%27limning-afzalliklari-va-kamchiliklari/>